

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR ELIMINATING SOUND PRONUNCIATION DEFICIENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLK ORAL ART

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Qo'qon Davlat universiteti, Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti

Toshmatova Zumradxon

Maxsus pedagogika, Logopediya yo'nalishi magistranti

Abstract

This article examines innovative technologies of using examples of folk folk art — fairy tales, proverbs, short sayings, riddles and narrations — to eliminate speech pronunciation deficiencies in primary school students. The article analyzes the mechanisms for the effective elimination of speech speech defects through integration of digital educational tools (multimedia, audio-visual analysis, gamification, AR-augmented reality, interactive logo-pedic programs) and folk oral art.

Keywords: Primary education, speech deficits, sound pronunciation, phonematic hearing, folklore, fairy tales, proverbs, riddles, quick statement, speech therapy methods, innovative technologies, multimedia, gamification, augmented reality (AR), digital storytelling, interactive exercises, speech development, pedagogical approach, national values, digital learning..

Introduction

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TOVUSH TALAFFUZI
KAMCHILIKLARINI XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI BARTARAF ETISHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Qo'qon Davlat universiteti, Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti

Toshmatova Zumradxon

Maxsus pedagogika, Logopediya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etishda xalq og'zaki ijodi namunalari — ertaklar, maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar va rivoyatlardan foydalanishning innovatsion texnologiyalari o'rganilgan. Maqolada raqamli ta'lim vositalari (multimedia, audio-vizual tahlil, gamifikatsiya, AR—kengaytirilgan reallik, interaktiv logopedik dasturlar) bilan xalq og'zaki ijodi integratsiyasi orqali nutq nuqsonlarini samarali bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. boshlang'ich ta'lim, nutq kamchiligi, tovush talaffuzi, fonematik eshituv, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, logopedik metodlar, innovatsion texnologiyalar, multimedia, gamifikatsiya, kengaytirilgan reallik (AR), digital storytelling, interaktiv mashqlar, nutqni rivojlantirish, pedagogik yondashuv, milliy qadriyatlar, raqamli ta'lim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida ta'lim tizimining sifat va samaradorligini oshirish, yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan qator qaror va farmonlari, "Yangi O'zbekiston — maktabdan boshlanadi" tamoyili, raqamli ta'lim muhitini keng joriy etish bo'yicha qabul qilingan konseptual hujjatlar boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur siyosiy dasturlar ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish bilan birga, o'quvchilarning intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish, xususan nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlashni dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, nutq kamchiligiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzini takomillashtirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Chunki yosh avlodning to'g'ri, ravon va ifodali nutqga ega bo'lishi — jamiyatning kelajakdagi kommunikativ madaniyati, ijtimoiy faolligi va intellektual taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Nutqidagi kamchiliklar esa bolaning ta'limga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga, ijtimoiy ishtirokiga hamda o'zini namoyon qilishiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz milliy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish siyosatini izchil davom ettirmoqda. Xalq og'zaki ijodi — ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar kabi bebaho ma'naviy merosimiz o'quvchilarning nutqiy rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadigan muhim didaktik resurs hisoblanadi. Ushbu merosni innovatsion ta'lim texnologiyalari — raqamli dasturlar, multimediya vositalari, interaktiv logopedik platformalar, AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyasi bilan uyg'un holda qo'llash orqali nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishning yangi va samarali mexanizmlari yaratilmoqda.

Bu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonini takomillashtiradi, balki milliy o'zlikni anglash, ma'naviy yuksalish va intellektual rivojlanishning uzviy bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodining chuqur tarbiyaviy qudratini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish esa Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatining mazmuniga to'la mos keladi va boshlang'ich ta'limda nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda to'g'ri, ravon va ifodali nutqni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Tovushlarning noto'g'ri talaffuzi (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm va boshqalar) o'quvchining o'qish-yozish malakalariga, muloqot ko'nikmalariga va o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois an'anaviy logopedik mashqlar bilan birga xalq og'zaki ijodi (ertak, maqol, tez aytish, topishmoq) asosidagi innovatsion metodlardan foydalanish juda samarali hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi — bolalar nutqini tuzatishdagi eng tabiiy, milliy va eng samarali vositalardan biridir. Uni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish (multimedia, AR, audio-analitika, STEAM) boshlangan darslarni qiziqarli, samarali va zamonaviy qiladi. Bunday yondashuv nafaqat talaffuzni to'g'rilaydi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda ravon, ifodali va to'g'ri nutqni shakllantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Nutq — bolaning fikrlash, muloqot, o'qish-yozish, ijtimoiy moslashuv kabi asosiy rivojlanish jarayonlarining poydevoridir. Ammo turli fiziologik, psixologik yoki muhit omillari ta'sirida ayrim o'quvchilarda tovush talaffuzi kamchiliklari kuzatiladi. Bunday nuqsonlar (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, dislaliya va boshqalar) bolaning o'z fikrini aniq bayon qilishiga, o'qish va yozish malakalarining

shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'ziga ishonchni pasaytiradi, kommunikativ faolligini cheklaydi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini raqamlashtirish hamda milliy ma'naviy merosga yangicha yondashuv tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, nutq kamchiligiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzini to'g'rilashda xalq og'zaki ijodi — ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, rivoyatlar kabi boy materiallardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi o'zining ritmik, ohangdor, takroriy tuzilishi, obrazli mazmuni va milliy ruhiyati bilan nutq tuzatish jarayoniga tabiiy uyg'unlashadi. Bu materiallar nafaqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi, balki bolada eshitish diqqatini, fonematik idrokni, nutq nafasini, lug'at boyligini, emotsional motivatsiyani ham rivojlantiradi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning (interaktiv dasturlar, audio-vizual tahlil, AR–kengaytirilgan reallik, digital storytelling, logoritmik multimedia mashqlari) xalq og'zaki ijodi bilan integratsiyasi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish jarayonini samarador va qiziqarli qiladi. O'quvchi ertak qahramoni obraziga kirib tovushlarni takrorlaydi, tez aytishlarni interaktiv ritmda ijro etadi, maqollarni intonatsion namuna asosida talaffuz qiladi, topishmoqlarni AR orqali jonlantirib o'rganadi. Bu esa logopedik mashg'ulotlarni majburiyatdan ijodiy o'yin jarayoniga aylantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi kamchiliklarini xalq og'zaki ijodi orqali bartaraf etishning innovatsion texnologiyalari — bu ertaklar, maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar kabi xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarning nutqiy nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari (multimedia, audio-vizual tahlil, AR–kengaytirilgan reallik, interaktiv logopedik dasturlar, gamifikatsiya texnologiyalari, digital storytelling) bilan integratsiyalangan pedagogik va logopedik metodlar majmuasidir. Quyida bular haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Multimediali logopedik texnologiyalar (audio–video tahlil)

Xalq og'zaki ijodi namunalaridan — tez aytish, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalanilib, ularni audio yozuv, animatsiya, video namuna, ko'rinishida berish o'quvchilarning tovushni to'g'ri eshitish, tushunish va takrorlash qobiliyatini shakllantiradi, natijada o'quvchi tovushni qanday chiqarishi kerakligini ko'radi, eshitadi va takrorlaydi.

2. Interaktiv “Tez aytish robotlari” yoki “Ritmli talaffuz” texnologiyasi

Tez aytishlar bola nutqi uchun eng samarali vosita. Innovatsion yondashuv sifatida: tez aytishlar ritm, musiqa, tembr bilan uygʻunlashtiriladi, tablet yoki kompyuter dasturi tovushning toʻgʻri chiqishini grafik shaklda koʻrsatadi, oʻquvchi oʻz talaffuzini real vaqtda vizual solishtiradi. Misol: “Shosha-pisha sholgʻom shopirdi” — sh, s, shp tovush oʻtishlari mashq qilinadi.

3. AR (kengaytirilgan reallik) asosida topishmoqlarni jonlantirish

Topishmoqdagi predmet AR ilovasi orqali jonlanadi.

Masalan, kamerani yoʻnaltirganda “qargʻa”, “qalam”, “randa” kabi obyektlar paydo boʻladi.

– Oʻquvchi predmetni koʻrib, tovushni toʻgʻri talaffuz qiladi.

– Qiyin tovushlar (r, q, gʻ, sh) obrazlar bilan bogʻlanadi.

Bu orqali obraz — eslab qolishni osonlashtiradi, talaffuzni tez mustahkamlaydi.

4. “Ertak-logoritmika” — harakat + nutq integratsiyasi

Ertak qahramonlari har bir tovush uchun alohida fonetik harakat bilan uygʻunlashtiriladi:

“R” tovushi — “Rustam yuguryapti” harakati, til vibratsiyasi mashqi

“S” tovushi — “Sichqonchani qidirish” harakatlari

“L” tovushi — “Laylak uchmoqda” harakatlari

Oʻyin-mashq orqali bola ertakni sahnalashtirib, tovushni tabiiy holatda mustahkamlaydi.

5. Digital storytelling (raqamli ertak yaratish)

Oʻquvchilar oʻz ovozi ertak aytadi, qahramonlar ovozi qayd qiladi, notoʻgʻri talaffuz qilingan tovushlar dastur orqali belgilab beriladi, toʻgʻri talaffuz uchun namuna qayta tinglanadi. Bu texnologiya bolada nutq bilan birga ijodkorlikni ham rivojlantiradi.

6. “Maqollar banki” – mobil logopedik platforma

Maqollar tovushlar boʻyicha guruhlanadi:

“R” tovushi: Rost — rohatga eltadi.

“S” tovushi: Soʻrasa, bilim oshadi.

“Q” tovushi: Qattiq mehnat — katta rohat.

Oʻquvchi maqolni oʻqiydi, dastur esa talaffuzni yozib oladi, xatolarni aniqlaydi, toʻgʻri variantni audio orqali koʻrsatadi.

7. Gamifikatsiya (oʻyinlashtirish) texnologiyasi

Xalq og‘zaki ijodi asosida maxsus o‘yinlar yaratiladi “Tez aytish poygasi”, “Topishmoqlar olami”, “Maqollarni to‘ldir”, “Ertakdagi tovushni top”

O‘yin jarayoni bola motivatsiyasini oshiradi, talaffuzni takrorlash esa tabiiy holga aylanadi.

8. STEAM yondashuvi: ertak predmetlarini modellashtirish

Ertakdagi predmetlar Lego, plastilin, grafik dasturlar orqali yaratilib predmet nomi talaffuzi, tovush tarkibi, bo‘g‘inlash, ritm bilan aytish mashq qilinadi.

Masalan: “Laylak keldi” ertagi — “L” tovushiga innovatsion mashq.

Ushbu texnologiyalar o‘quvchining fonematik eshituvini, to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini, nutq nafasini va ritmini takomillashtirishni, milliy qadriyatlar asosida nutqiy rivojini qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlaydi hamda logopedik jarayonni qiziqarli, samarali va interaktiv shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashgan innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etishda eng samarali, milliy qadriyatlarga tayangan, zamonaviy talablarga javob beruvchi metodlardan biri sanaladi. Ushbu yondashuv nafaqat nutqiy nuqsonlarning oldini olish va tuzatish imkonini beradi, balki bolalarning ijodiy fikrlashi, milliy o‘zlikni anglash, kommunikativ salohiyat va nutq madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madinaxan, M., & Odinaxan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinaxan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.



4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Xurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.